

G'O'ZA QATOR ORALARIGA CHUQUR ISHLOV BERISHNING PAXTA  
XOSILDORLIGIGA TA'SIRI

**Teshaboyev Nodirbek Ikromjonovich**

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Mirodilova Odinaxon Abdumutal qizi**

*FarDU, Agrar qo'shma fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ammo amalda paxtakor dehqonlar G'o'za qator oralariga qancha ko'p ishlov (kultivatsiya, chizel) berilsa shuncha yaxshi degan aqidaga ruju qilganligi tufayli qator oralarni chuqur yumshatish g'o'za 50 foiz gulga kirguncha ham davom etaveradi.

**Kalit so'z:** g'o'za, paxta, tuproq, ildiz, suv.

**Аннотация:** На практике, однако, фермеры, выращивающие хлопок, приняли убеждение, что чем больше обработки почвы (культивация, долото) делается между рядами, тем глубже междурядья, пока не зацветет 50 процентов хлопка.

**Ключевые слова:** хлопок, хлопок, почва, корень, вода.

**Annotation:** In practice, however, cotton farmers have adopted the belief that the more tillage (cultivation, chisel) is given between rows, the deeper the row spacing will continue until 50 percent of the cotton is in bloom.

**Key words:** cotton, cotton, soil, root, water.

O'zbekiston paxtachiligini tobora rivojlanishida, xususan paxtadan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda g'o'za qator oralarini chuqur yumshatish (23-25 sm ga chizellash) nihoyatda ahamiyatli. Zero bu agrotadbirni qo'llash tufayli g'o'zaning ildiz tizimi eng ko'p joylashgan 23-25 smli qatlamning agrofizikaviy, agrokimyoviy, agrobiologiyoviy va suv xususiyatlari ijobiy tomonga o'zgaradi.

Mazkur agrotadbir ishlab chiqarishda o'tgan asrning 75 - yillaridan qo'llanmoqda. YA'ni ilmiy asoslanmagan holda amalga oshirilayotir.

Paxta maydonlarida chuqur yumshatish o'kazish ko'p tadqiqotchilar (2;3;4;5;6) tomonidan o'rganilgan. Ammo bu tadqiqotchilar g'o'za qator oralarini emas, balki butun dalani chizellashning samarasini tadqiq qilganlar.

Biz 2016-2017 yillari bu masalada tajriba o'tkazib, faqat g'o'za qator oralariga 23-25 sm chuqurlikda yaganalash oldidan chuqur ishlov berishni o'rgangan va bu agrotadbir g'o'zaga ijobiy ta'sir etganini aniqlagan edik.

Ammo amalda paxtakor dehqonlar "G'o'za qator oralariga qancha ko'p ishlov (kultivatsiya, chizel) berilsa shuncha yaxshi" degan aqidaga ruju qilganligi tufayli qator oralarni chuqur yumshatish g'o'za 50 foiz gulga kirguncha ham davom etaveradi. Shuning uchun biz keyingi yillardagi (2018-2019 yy.) tadqiqotlarimizda g'o'za qator oralarini chizellashning maqbul soni va muddatini o'rgandik.

Bizning nazarimizda g'o'za qator oralarini chuqur yumshatishning nazariy asoslari quyidagicha:

-tuproq namligini saqlash, yerni chigit ekishga tayyorlash, chigit ekish, chigit suvi berish, bu suvdan so'ng kultivatsiya o'tkazish jarayonida bir dalaga kamida 4 marta texnika kiradi. Bular tufayli g'o'za ildizi ko'proq tarqaladigan 0-25 sm li qatlamni zichligi ortadi, g'ovakligi kamayadi, g'o'za ildizini risoladagidek o'sib rivojlanishi uchun biroz noqulay tuproq muhiti paydo bo'ladi.

Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra g'o'za ildizining shikastlangan, yoki qirqilgan joyidan "chachala" ildizchalar (kallius) o'sib chiqsada, bu ildiz o'z faoliyatini to'la tiklayolmaydi (1).

Yuqoridagilarga asoslanib biz tuproqqa chuqur ishlov berishni g'o'zaning paxta hosildorligiga ta'sirini o'rgandik.

Tadqiqotda dastlab g'o'za amal davrining boshlaridagi ildiz tizimi shakllanishini aniqladik (1-jadval).

Ma'lumotlarni ko'rsatishicha asl bo'z tuproqlar sharoitida g'o'za rivojining urug' barg bosqichidan - shonalashgacha davrda o'q ildiz 15,2-55,5 sm. uzunlikka boradi. Yon ildizlar soni 41,0 donani tashkil etadi.

1-jadval

Amal davrining boshlarida g'o'za ildiz tizimi shakllanishi

Var. №	Rivojlanish bosqichlari	O'q ildizni ligi, sm	Birlamchi yon ar soni, dona	Yon ildizlarning lish kengligi, sm
1	Urug' barg	15,2	16,3	4,2
2	1-2 chinbarg	26,4	32,2	11,5
3	3-4 chinbarg	41,3	37,7	29,1
4	Shonalash davrida	55,5	41,0	42,3

G'o'zaning yon ildizlari o'sish va rivojlanish jarayonida yon tomonga 42,3 sm.ga tarqaladi. G'o'za qator oralariga chuqur ishlov berishda buni hisobga olish zarur va shart.

Shu boisdan biz Toshloq tumani Navbaxor MMTP xududidagi "Navbaxor paxtakori 2020" fermer xo'jaligini asl bo'z tuproqlarida quyidagi tartib bilan dala tajribasi o'tkazdik (2018-2019 yy.).

1-variant. Barcha yuza ishlovlar (kultivatsiya) 14-16 sm.ga o'tkazildi, chuqur ishlov o'kazilmadi (nazorat).

2-variant. Qator oralarni ishlashlar (kultivatsiya) tabaqalashtirib, birinchisi 17-18 sm.ga keyingilari 14-16 sm ga o'tkazildi.

3-variant. Qator oralarni tabaqalashtirib ishlash, yaganalash oldidan 23-25 sm.ga chuqur yumshatish (chizellash) amalga oshirildi.

4-variant. Qator oralarni tabaqalashtirib ishlash (kultivatsiya) yaganalashdan so'ng 23-25 sm.ga chuqur yumshatish o'tkazildi.

5-variant. Qator oralarni tabaqalashtirib ishlash (kultivatsiya), shonalash davrida 23-25 sm.ga chuqur yumshatish bajarildi.

Tajriba to'rt qaytariqli, bo'lakchalar bir qatorga joylashtirilgan. Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan kuzatuvlar, hisoblashlar, aniqlashlar sobiq O'zPITIning "Dala

tajribalari o'tkazish uslublari" (2007), B.A.Dospexovning "Metodika polevogo opita" uslubnomasi (1983) asosida amalga oshirildi.

Tajriba dalasining tuprog'i asl (tipik) bo'z, qadimdan sug'oriladi, mexanik tarkibi o'rta qumoq, haydov qatlam chirindisi (gumus) 1,2 foiz. Sizot suvlari yer yuzasidan 10-12 metr chuqurlikda joylashgan. G'o'za CHDNS ga nisbatan 70-70-60 foiz maromida sug'orildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilar aniqlandi. G'o'za qator oralariga 23-25 sm.ga chuqur ishlov berish 1-jadval ma'lumotlarida kelirilganidek shubhasiz uning ildiz tizimiga salbiy ta'sir etadi. Jumladan, 3-variantda 3 ta, 4-variantda 5 ta, 5-variantda 6 ta yon ildizlar qirqilgan hamda shikastlangan. Bu albatta g'o'zaning o'sishi, rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Xususan, nazorat variant g'o'zalari 1 avgust kuni 84,1 sm.ga o'sdi, 3-variantda esa 85,2 sm.ga, 5-variantda 84,3 sm.ga o'sdi. Xullas, g'o'za qator oralariga o'simlik 4-5 chinbarg chiqarganda va shonalash bosqichida chuqur ishlov berish yon ildizlarni qirqilishiga, shkastlanishiga sabab bo'ladi.

Qator oralariga chuqur ishlov berish muddatlari g'o'zaning rivojlanishiga ham ta'sir etdi. Bu xolat oxir-oqibat paxta hosildorligida yaqqol ko'rindi (2-jadval).

Paxta hosildorligi, s/ga

Var. №	Yillar bo'yicha			O'rtacha, s/ga	Farqlar + s/ga
	2017	2018	2019		
1	31,4	32,2	33,1	32,2	-
2	34,5	35,4	36,6	35,5	+3,3
3	35,6	35,4	36,5	36,8	+4,6
4	37,3	36,1	35,2	36,2	+4,0
5	32,6	34,6	33,4	33,5	+1,3

$$HCP_{05} = +1,98 \text{ ц/га}$$

Xususan, 1-variant (nazorat)dan 32,2 s/ga paxta hosili olindi, 3-variantdan 36,8, 4-variantdan 36,2 s/ga hosil yetishtirildi. Navbatdagi 5-variantdan 33,5 s/ga hosil olindi xolos.

Demak, tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin.

1. Farg'ona viloyatining asl bo'z tuproqlar sharoitida g'o'zaning ildiz tizimi ko'proq tuproqning 0-30 sm.li qatlamida joylashadi.

2. Mazkur tuproq sharoitida g'o'zaning birlamchi yon ildizlari asosan 0-30 sm.li qatlamda rivojlanadi.

3. Asl bo'z tuproqlarda g'o'za qator oralariga chuqur ishlov (23-25 sm.ga) berish yoki chizellash yaganalashgacha o'tkazilgani maqbul hisoblanadi.

4. G'o'za shonalayboshlaganda qator oralarga chuqur (23-25 sm) ishlov berish kesilgan va shikastlangan yon ildizlar sonini oshiradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Anvarjonovich D. Q., Ikromjonovich T. N. Influence Of Microelement Fertilizers In Foliar Feeding Of Cotton On Changes In Cotton Boll Weight //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2024. – Т. 24. – С. 16-19.

2. Teshaboeva, M., D. Abdug'Anieva, and S. Raximjonova. "ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАН МОШ ҲОСИЛИ ТАРКИБИДАГИ ПРОТЕИН МИҚДОРИ." Scienceandinnovation 1.D7 (2022): 517-526.

3. Давронов Қ., Тешабоев Н. МИКРОЭЛЕМЕНТЛИ ЎҒИТЛАРНИ ЎСИМЛИКНИ БАРГИ ОРҚАЛИ ҚЎЛЛАШНИНГ ҒЎЗНИ 1000 ДОНА ЧИГИТ ВАЗНИ ҲАМДА БИР КЎСАКДАГИ ПАХТА ВАЗНИ НИНГ ЎЗГАРИШИГА ТАЪСИРИ //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 8. – С. 1811-1815.

4. Anvarjonovich D. Q., Ikromjonovich T. N. Influence Of Microelement Fertilizers In Foliar Feeding Of Cotton On Changes In Cotton Boll Weight //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2024. – Т. 24. – С. 16-19.

5. Ikromjonovich T. N., Ikromjonovna T. M. INFLUENCE OF SEED PLANTING PERIODSON THE PRODUCTIVITY OF AUTUMN STEAM DEED VARIETIES. 6. Teshaboyev N., Muhammadaliyev M., Usmonova Z. THE INFLUENCE OF DEEPWORKING BETWEEN ROWS ON COTTON PRODUCTIVITY //Science and innovation.

– 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 660-664.

7. Teshaboyev N., Akbarova M., Akhmadjonova S. DEEP SOFTENING OF ROW BETWEENAND COTTON PRODUCTIVITY //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 612-616.

8. Teshaboyev N., Ro'Zimamatov J., Ro'Zmamatova I. INFLUENCE OF PLANTING PERIODAND PRINCIPLES ON THE LEAF LEVEL AND PHOTOSYNTHETIC NETPRODUCTIVITY OF MEDIUM-COOL RICE VARIETIES //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 650-654.

9. Teshaboyev N. et al. THE INFLUENCE OF SEED PLANTING PERIODS ON THEPRODUCTIVITY OF AUTUMN STEAM GRAIN ASRNAVI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 122-125.

10. Teshaboyev N., Tursunaliyev S., Kadirjonova R. THE INFLUENCE OF DEEP SOFTENINGOF ROW BETWEEN COTTON YIELD OF COTTON //Science and innovation. – 2022. –Т. 1. – №. D7. – С. 655-659.

11. Teshaboyeva M., Vakhobova N., Akmaljonova M. AAS ANALYSIS OF THE AMOUNT OFIRON IN THE GRAIN CONTENT OF LOCAL AUTUMN SOFT STEAM GRAINS//Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 570-574.

12. Teshaboyev N. FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF PODES IN THE"МUMТОЗ" VARIETY OF JERYONG WHITE //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. –№. D7. – С. 402-405.

13. Teshaboyev, N., Zoraboyeva, F., Alijonova, N., Rustamova, A., & G'Ulomova, D. (2022). FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF PODES IN THE "MUMTOZ" VARIETY OF JERYONG WHITE. *Science and innovation*, 1(D7), 402-405.
14. Teshaboeva, M., Abdug'Anieva, D., & Rakhimjonova, S. (2022). CONTENT OF PROTEIN CONTAINED IN REPRODUCED MASH HARVEST. *Science and innovation*, 1(D7), 517-526.
15. Teshaboyeva, M., and M. Nizomitdinova. "IMPORTANCE OF IRRIGATION IN POTATO GROWING." *Science and innovation* 1.D7 (2022): 322-326.
16. Teshaboyev, N., Akbarova, M., & Axmadjonova, S. (2022). DEEP THINNING AND COTTON YIELD. *Science and Innovation*, 1(7), 612-616.
17. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Sheraliyeva, Z., & Xoliqova, O. (2022). THE INFLUENCE OF SEEDING TIMES ON THE YIELD OF WINTER WHEAT VARIETIES. *Science and Innovation*, 1(7), 122-125.
18. Ikromjonovich T. N. et al. SHIFOBAXSH MANDARIN—QISHNING OLTIN NE'MATI // *Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 18. – С. 559-562.*
21. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Siddiqova, G., & Ro'zmamatova, I. (2022). THE